

**ALISHER NAVOIY ASARLARIDA SHAXS MA'NOSINI IFODALOVCHI  
“AHL” KOMPONENTLI LUG'AVIY BIRLIKLARNING LINGVISTIK  
TAHLILI**

**Zulfizargul AKBAROVA**

*Qo'qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti (PhD)*

[zulfizargulakbarova@gmail.com](mailto:zulfizargulakbarova@gmail.com)

**DOI** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14806537>

**Annotatsiya:** Alisher Navoiy o'zining she'riy va nasriy asarlari orqali nafaqat badiiy adabiyot, balki tilshunoslikning rivojlanishiga ham beqiyos hissa qo'shgan ulug' mutafakkir hisoblanadi. Navoiy asarlarida qo'llanilgan leksik birliklar, xususan, “Ahl” komponentiga ega bo'lgan so'zlar va iboralar tilshunoslik nuqtayi nazaridan alohida qimmatga ega. Ushbu maqola Navoiy ijodida “Ahl” komponenti ishtirokidagi lug'aviy birliklarning semantik tahlili, shaxs ma'nosini ifodalovchi birliklarning ijtimoiy, ma'naviy, oilaviy hamda shaxsiy xususiyatlarini ko'plab misollar yordamida yoritib bergan.

**Kalit so'zlar:** shaxs tushunchasi, ahl, komponent, ahli din, ahli irfon, ahli safo, ahli saxo, izofiy birikma.

**Аннотация:** Алишер Навои – великий мыслитель, внесший своими поэтическими и прозаическими произведениями несравненный вклад в развитие не только художественной литературы, но и языкознания. Особую ценность с точки зрения лингвистики имеют лексические единицы, использованные в произведениях Навои, в частности слова и словосочетания с компонентом «Ахл». В данной статье на многих примерах проводится семантический анализ лексических единиц с участием компонента «Ахл» в творчестве Навои, социальные, духовные, семейные и личностные характеристики единиц, выражающих смысл личности.

**Ключевые слова:** понятие личности, ахль, компонент, ахли дин, ахли ирфан, ахль сафа, ахль сахо, аддитивное сочетание.

**Abstract:** Alisher Navoi is a great thinker who made an incomparable contribution to the development of not only fiction, but also linguistics through his poetic and prose works. The lexical units used in Navoi's works, in particular, the words and phrases with the "Ahl" component, have special value from the point of view of linguistics. This article covers the semantic analysis of the lexical units with the participation of the "Ahl" component in Navoi's work, the social, spiritual, family and personal characteristics of the units expressing the meaning of the individual with the help of many examples.

**Key words:** the concept of personality, ahl, component, ahl din, ahl irfan, ahl safa, ahl saxo, additive combination.

Shaxs tushunchasi tilshunoslikda o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etib, u lingvistik birliklar yordamida ifodalanadi. Ushbu birliklar nafaqat insonning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi, balki uning ijtimoiy o'rni, ma'naviy jihatlari va psixologik xususiyatlarini ham ko'rsatadi. Shaxs ma'nosini ifodalovchi birliklarning tahlilga tortilishi ana shu tilning qay darajada boy ekanligini hamda madaniy ahamiyatini yaqqol ko'rsatib beradi.

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Shaxs ma'nosini ifodalovchi birliklar tilshunoslikning semantika, leksikologiya va pragmatika kabi sohalarida o'rganilgan mavzulardan biri bo'lib, bu sohada bir qancha olimlar tadqiqot olib borganlar. Jahon tilshunos olimlaridan M.V.Nikitin, Yu.S.Stepanov, V.V.Vinogradov, E.Saphir va B.Whorf, A.Wierzbicka, G.Lakoff va M.Johnson, Ch.Fillmor kabi olimlar shaxs ma'nosini ifodalovchi birliklarni o'rgangan bo'lsa, o'zbek tilshunoslardan Sh.Safarov, Sh.Rahmatullayev, M.Jo'rayev, H.G'ulomov kabi olimlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Alisher Navoiy asarlarida ko'plab shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi tushunchalar mavjud bo'lib, ulardan biri "Ahl" komponentli birliklardir. Ushbu maqolada "Ahl" atamasining semantik jihatlari, uning shaxs ma'nosini ifodalovchi vosita sifatidagi o'rni va qo'llanilishi tahlil qilinadi.

O'zbek tilining izohli lug'atida "Ahl" so'ziga shunday ta'rif beriladi:

"AHL — xalq, aholi; loyiq; 1) Ma'lum bir qarash (nuqtai nazar), din va sh. k.ga mansub kishilar, odamlar. Islom ahli. Istiqomat qiluvchi, yashovchi kishilar; aholi. Shahar ahli. Qishloq ahli. Jahon ahli. Mahalla ahli. [1.] "Ahl" so'zi arabcha kelib chiqib, asosan "odamlar", "guruh", "xalq" ma'nosini anglatadi. U diniy, ijtimoiy va oilaviy kontekstda keng ishlatiladi. Alisher Navoiy asarlarida ushbu komponent turli ma'nolarda – shaxs, jamiyat, oilaviy va axloqiy qadriyatlarni ifodalashda alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Masalan, "**ahli ilm**"(**ilm ahli**)[2..175.] kabi izofiy birikma holida qo'llanilib, ijtimoiy qatlamlarga ishora qilib keladi.

Ko'zlari jonu ko'ngul naqdin olib, sarf ettilar,

Aylagandek **ahli din** amvolini kuffor xarj. [3.107.]

Keltirilgan misrada "Ahl" so'zi "**ahli din**"(**dindorlar**)[2..173] degan ma'noni ifodalaydi va ma'lum bir din vakillari jamoasiga ishora qilib keladi.

Soqiyo, quy davr ayog'in o'ylakim, no'sh aylasam –

To qiyomat topmag'aymen **ahli davrondin** xabar.

Bu o'rinda **ahli davron**- zamona ahli, zamondoshlar[2.173.] kabi ma'nolarni bildirsa, unga sinonim qo'llaniluvchi **ahli zamon** izofiy birikmasi ham aynan shu ma'nolarni ifodalaydi:

Zamondin ahl yo **ahli zamondin** istagon ehson,

Yonar o'tdin tilarkim suv, chiqarg'ay xoradin gavhar. [3.131.]

Oshiq o'ldum necha javr **ahli zamondin** tortayin,

Ulki oshubi zamondur bori ondin tortayin.

Ey Navoiy, necha qilg'aylar etakdek poymol,

Men dog'i emdi etak **ahli jahondin** tortayin.[3.534.]

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

**Ahli jahon** – barcha odamlar, butun dunyo ahli[2. 174.] kabi ma'nolarni ifodalaydi. Yuqorida keltirilgan misralarimizda qo'llanilgan *ahli zamon* hamda *ahli jahon* birliklari mazmuniy jihatdan bir-biri bilan sinonimdek tuyulsa-da, *ahli jahon* izofiy birikmasi mazmuni kengroq, to'kisroq ekanligi ma'lum bo'ladi.

“Ahl” komponentli birliklar ijtimoiy shaxsiyat va ma'naviyatni ifodalashda ham qo'llanilgan. Masalan: **ahli irfon - ma'rifat ahli, ilm va hikmat sohiblari, oriflar**[2..175.]; **ahli safo – poklik va tozalikka intiluvchi shaxslar**[2.178]; **ahli saxo – saxovatli kishilar, saxiylar**[2..178].

Manga solim o'l, deb duo qilmangizkim,  
Beganmas salomatni *ahli malomat*. [3.75.]

Ushbu misrada qo'llanilgan *ahli malomat* birligi “malomat, ta'na-tuhmat qiluvchilar”[2.176] kabi ma'nolarni bildirib, ma'naviy bir doiraga birlashuvchi insonlar guruhiga nisbatan qo'llanilgan.

“Ahl” komponentli izofiy birikmalar ba'zi o'rinlarda ma'lum hududda yashovchi kishilar guruhini ham ifodalab kelgan. Masalan,

Navoiy etti o'zin o'yla turk hindusi  
Ki, *ahli Chinu Xito* bo'ldilar ango hindu. [3.566.]

Maishatparastlar, ayshu ishratga berilgan insonlar Navoiy asarlarida *ahli aysh* leksik birligi orqali ifodalangan. Masalan,

Mayi ishratni *ahli aysh* cheksun,  
Menga xunobai ranju ano bas. [3.260.]  
Xonaqahda halqai zikr ichra g'avg'o qildi shayx,  
*Ahli dillar* naqdi avqotini yag'mo qildi shayx. [3.109.]

Ushbu misralarda keltirilgan *ahli dil*[2.173.] izofiy birikmasi orqali yurak sirlarini sezuvchi, sirdosh, g'amxo'r; ko'ngil bergan oshiq ma'nolari ifodalanmoqda.

Alisher Navoiy sermahsul so'z san'atkoridir. Ba'zi misralari tahlilini kuzatsak, yanada ko'p miqdorda “Ahl” komponentli shaxs ma'nosini ifodalovchi leksik birliklarni uchratishimiz mumkin. Masalan,

Firoq shomiki, *ahli xirad* berur pandim,  
Magarki do'zax ulu bu oning azobi erur.  
Sabo nasimi aningdek esar chamandinkim,  
Degaysen, *ahli vaf*o umrining shitobi erur. [3. 198.]

Yuqorida ko'rib chiqqan misramizda keltirilgan **ahli xirad** forscha izofiy birikma bo'lib, Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'atida *hushyorlar, aqlu idroklilar, ziyraklar*[2.181.] kabi ma'nolar ifodalangan. Misra mazmuniga ko'ra, firoq vaqtida aql idrokli kishilar ham menga pand berdi, bu xuddi do'zax azobiga o'xshaydi. Chamanda shunday yengil shabboda esmoqdaki, go'yo *ahli vaf*o ya'ni

*vafodorlar, vafolilar, va'dasining ustidan chiquvchi insonlar*[2.172.] umri tez o'tib ketayotgandek deyilgan.

Zeb erur husn ahlig'a *ahli nazar* nazorasi,

Ko'zki bulbul tikti gul ruxsori uzra xol erur. [3. 201.]

Ushbu parchaning mazmuni husn ahli ya'ni zebo-go'zallar uchun yaxshi nazar soluvchi (ahli nazar) kishilarning qarashi (nazar tashlashi) zeb hisoblanadi bu xuddi gul yuzidagi xoliga bulbul ko'z tikkani kabidir. Qo'llanilgan *ahli nazar* arabiy izofiy birikmasi **yaxshi qarovchilar, nazar soluvchilar**[2.177] kabi ma'nolarni ifodalab, ijobiy sifatlarga ega shaxslarga ishora qilib kelgan.

Umuman olganda, "Ahl" so'zi XV-XIX asrlarda yaratilgan badiiy asarlarda keng qo'llanilganligi namoyon bo'lmoqda. Xususan, Zahiriddin Muhammad Boburning hasbi hol tarzida yaratilgan "Boburnoma" asarida ko'plab tarixiy shaxslar va ularning faoliyati haqida ma'lumotlar bor. "Boburnoma"da kasb-kor yoki ma'lum guruhga aloqadorlik ma'nosini ifodalovchi, *sohib, ahl* so'zlari ishtirok etgan izofali birikmalar mavjud. Jumladan, *ahli islom* -islom ahli, *ahli kufr* – kufr ahli, *ahli kuffor* – kofirlar ahli, *ahli irtidod* – chekinuvchilar ahli, murtadlar, *ahli fazl* – fazl ahli, *ahli she'r* – she'r ahli kabi izofali birikmalar mavjud. Yana shunday birikmalar tahlilini M.Amonovning "Boburnoma"dagi izofiy birikmalarning lisoniy tadqiqi" nomli dissertatsiya ishida ko'rib chiqishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy asarlarida "Ahl" komponenti nafaqat lug'aviy birlik sifatida, balki ijtimoiy-ma'naviy ma'nolarni ifodalovchi vosita sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu birliklar orqali shoir insoniyatni yaxshi fazilatlarga chorlaydi va jamiyatdagi har bir shaxsni kamolotga yetishga undaydi, bu holat Navoiy asarlarining ma'naviy va didaktik ahamiyatini yanada oshiradi.

#### Adabiyotlar ro'yxati

#### (Использованная литература/ References):

1. O'zbek tilining izohli lug'ati 1-tom. "O'zbekiston", - T.,2021.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati I tom. – T., "Fan". – 1983.
3. Alisher Navoiy "Topmadim": G'azallar. – T. Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. B.784.
4. M.Amonov "Boburnoma"dagi izofiy birikmalarning lisoniy tadqiqi". Filol. fan. nomz. diss. – Farg'ona, 2020.